

ALISHER NAVOIYNING "NAZM UL-JAVOHIR" ASARIDAGI AXLOQIY -  
FALSAFIY G'UYALAR.

Mamasharifova Nuriniso

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotasiya:** *Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi o'zbek adabiyotining eng yuksak cho'qqilaridan biri hisoblanadi. Uning asarlarida inson, jamiyat va ma'naviyat masalalari chuqur falsafiy, badiiy tarzda yoritilgan. Ushbu maqolada "Nazm ul-javohir" asaridagi axloqiy-falsafiy g'oyalar qisqacha tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy, "Nazm ul-javohir", Ruboiy, Komil inson, Hasad, Ma'naviy tarbiya, Yaxshi amal, Hayo, Hikmat.*

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lib, unda insonning axloqiy kamoloti va ma'naviy yetukligi masalalari muhim o'rin egallaydi. Shoir o'z asarlarida nafaqat badiiy go'zallikni, balki chuqur falsafiy fikrlarni ham mujassam etgan. Ayniqsa, "Nazm ul-javohir" asari hikmatga boy ruboiylari orqali insonni ezgulikka, komillikka chorlaydi. Ushbu asarda ilgari surilgan axloqiy-falsafiy g'oyalar alohida e'tiborga loyiqdir. Asar bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

"Nazm ul-javohir"dagi ruboiylar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, ularda axloqqa oid muhim hikmatlar bayon etilgan. Mazkur ruboiylar insonni komillikka yetaklovchi g'oyalarni o'zida mujassam etadi.

Haq yo'lida har kimga ibodat bo'lgay,

Yaxshi amal asbobi saodat bo'lgay,

Gar yaxshi amal kishiga odat bo'lgay,

Umri bu amal birla ziyodat bo'lgay.

Kishi agar yaxshi amal qilishga odatlansa uning umri ham amali bilan birga ziyod (uzun) bo'ladi. Haq yo'lida har kim nima qilsa ham bu ibodat qilish bilan teng bo'ladi yaxshi amallar baxt-saodatga sabab bo'ladi.

Demak, inson yaxshi amallar qilishga o'rganishi kerak yaxshi amallari uni yaxshilik sari ham yetaklaydi insondan faqat yaxshilik qoladi yaxshi amal deganda faqat kimgadir yordam berishni emas to'g'rilik, halollik, rostgo'ylik kabilarni ham tushunishi kerak ushbu fikrlarni hayotiy misollar orqali ham izohlash mumkin

Bir kishi har kuni masjidga borar, namoz o'qib, yo'l-yo'lakay muhtojlariga yordam berar ekan. Kunlarning birida undan nima uchun har kuni shunchalik ko'p yaxshilik qilishi haqida so'rashibdi. U kishi avvalari bu ishlarni o'zini majburlab qilganini, biroq vaqt o'tishi bilan bu uning uchun odatga aylanganini tushuntiribdi. Hozirgi kunda esa, agar yaxshilik qilmasa, o'zini noqulay his qiladigan aytibdi. Buni eshitgan bir donishmand kishi uning amallari o'zini tarbiyalaganini ta'kidlabdi. Donishmandning fikricha, endi u kishiga shunchaki yaxshilik qilmayapti, balki yaxshilikning o'zi uni boshqarmoqda. Xuddi ovqat yeyish ehtiyojga aylangani kabi, bu kishi uchun ham yaxshilik qilish hayotiy ehtiyojga

aylanib ulgurgan ekan. Bu hikoyadan shuni tushunish mumkinki dastlab yaxshi amallarni majburan qilgan keyinchalik bu uning odatiga aylangan.

Har kimgaki ko'p taom yemak fandur,  
Bilgilki, najosatqa tani maskandur,  
Qorning bila do'st bo'lmasang ahsandur,  
Nevchunki er o'g'lig'a qorin dushmandur

Hazrat Alining "Batn ul-mar'i aduvvahu" ("Kishining qorni uning dushmanidir") hikmati ushbu ruboiy uchun asos bo'lib, uning mazmuni she'ning to'rtinchi misrasida o'z ifodasini topgan. Yuqoridagi misralarda shoir ko'p taom yemoqlikning qanday oqibatlariga olib kelishini aniq misollar vositasida tushuntirib, nafsning yo'liga yurib, qorin bilan do'st bo'lmaslik lozimligini uqtiradi. Hikmatdagi singari ruboiyda ham "qorin" so'zi majoziy ma'noda kelib, "nafs" mazmunini ifodalagan.<sup>15</sup>

Avji sharaf uzra oftob o'ldi hayo,  
Bo'stoni saodatqa sahob o'ldi hayo,  
Mazmumi xasoilga hijob o'di hayo,  
El aybiga, yoki niqob o'ldi hayo.

Hazrat Alining "Hayo ul-mar'i satruhu", ya'ni "Kishining hayosi – uning pardasidir" hikmati mazmuniga muvofiq bitilgan bu ruboiyda hikmatdagi muxtasar mazmun poetik talqin etilgan. She'ning ilk misrasida hayo sharaf (ulug'lik) osmoni uzra porlab turgan quyoshga o'xshatilib, uning inson hayotini munavvar qilishiga urg'u berilsa, ikkinchi misrada u saodat bo'stoni ustidagi bulutga qiyos qilinib, u keltiruvchi foydaga e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, bo'stonning soya salqinligi, yoqimli havosi, unda gulu gilyohlarning yashnashi,

odamlarning bahra olishi bulut tufaylidir. Umuman, bulut detal-obrazi Navoiy ijodida insonlarga foyda keltirish ma'nosini ifoda etadi. Buni ijodkorning "Hayrat ul-abror" dostonining 13-maqolati "Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida" deb nomlanganidan ham bilish mumkin.

Keyingi misralarda esa hayoning yomon (mazmum) xislatlar (xasoil)ga hijob, el aybiga niqob ekanligi aytiladi. Zaminida "Kafo lil-hasudi min hasudihis sadaqa", ya'ni "Hasadgo'yga o'z hasadi kifoyadir" hikmati turuvchi quyidagi ruboiyda shoir "hasadi" so'zini radif sifatida qo'llaydi:

Har kimki hasud erur, sazodur hasadi,  
Haqdin bo'lg'on yomon qazodur hasadi,  
O'z jonig'a yetguncha balodur hasadi,  
Bilkim, anga dardi bedavodur hasadi.

Odatda, "Nazm ul-javohir" ruboiylarida Hazrat Ali hikmatining mazmuni she'ning to'rtinchi misrasida aks etar edi. Ammo ushbu ruboiyda masalaga boshqacha yondashilgan: hikmat mazmunini butun asar qatiga singdirib yuborish qasd etilgan. Bu maqsadga erishishda esa "hasadi" so'zining radif o'laroq har to'rt misrada kelishi bosh omil

<sup>15</sup> "Nazm ul-javohir" ruboiylarining qofiyasusuyatlari Durdona Zohidova Qo'qon DPI dotsenti va SHoiraxon Xo'jayeva Qo'qon DPI o'qituvchisi maqolalari

boʻlgan deb aytish mumkin. "Nazm ul-javohir"da bu kabi ruboiylar nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Sheʼrning birinchi misrasida "Kimki hasadgoʻy boʻlsa, bu uning sazovorligidir", deyiladi. Gap shundaki, Alloh insonning feʼl-atvoriga, axloqiga qarab uni yo qaysidir neʼmatga musharraf, yo qaysidir illatga giriftor etadi. Ana shu holat sazo, yaʼni sazovorlikdir. Demak, hasadgoʻy inson uchun oʻz axloqidagi hasadi uning sazosi – bir umrlik jazosi ekan. Ikkinchi misrada esa fikr bir pogʻona balandlatiladi: "Haqdin boʻlgʻon yomon qazodur hasadi". Matnga chuqurroq nazar tashlasak, "qazo" soʻzining semiotik ochqich vazifasini oʻtayotganiga guvoh boʻlamiz. Ruboiy diniy-tasavvufiy mazmunda boʻlgani bois unda mashhur tushuncha – qazo xususida soʻz bormoqda. Qazoning asl mohiyatini bilish ruboiy mazmunining toʻgʻri tushunilishiga sabab boʻladi. "Qazo" tushunchasi koʻp hollarda "qadar" tushunchasi bilan yonma-yon tilga olinib, ular bir-birini taqozo qiladi. "Ulamolarimiz qazoni Alloh taoloning hamma narsalarni kelajakda qanday boʻlishini azaldan bilishi, qadar oʻsha narsalarni Allohning azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishi deb taʼriflaydilar"<sup>16</sup> Ruboiyga qaytadigan boʻlsak, unda hasadning yomon kishi uchun Allohdan boʻlgan qazoyi qadar – taqdir ekanligi aytilmoqda. "Qazo"ning "sazo"dan farqi uning Alloh tomonidan qatʼiy-oʻzgarmas qilib bitib qoʻyilganidir. Uchinchi misrada esa fikr yana bir daraja yuqorilaydi: "Oʻz jonigʻa yetguncha balodur hasadi". Demakki, hasadchining hasadi umrbod uning ich-etini yemirib, azoblab, oxiroqibat boshiga yetadi. Soʻnggi misrada esa fikr haddi aʼlosiga koʻtariladi: "Bilkim, anga dardi bedavodur hasadi". Yuqoridagi barcha misralar orqali hasad balosining inson uchun xavf-xatari xususida soʻz borgan boʻlsa, soʻnggi misrada eng yomon jihat hasadning dardi bedavo – davosiz dard ekanligi taʼkidlanmoqda. Soʻz zohir etar zamir ishi koʻpragidin, Til muxbir erur koʻngul nihon emgagidin, Fahm ayla kishi holini soʻz demagidin Kim, berdi xabar hadisi koʻnglidagidin. Navoiy nazarida odob-axloq va tarbiya - insonning ziynati, shu sababdan boʻlsa kerak soʻz sohibining deyarli barcha asarlarida bu mavzuga alohida toʻxtalib, taʼkidlab oʻtadi: "Odob bir gavhar erurki, boʻstonida poklik oʻsar, xulq esa uning xushboʻy guli boʻlib, har yurakka rohat baxsh etar". "Sheʼriy durdonalar"dagi axloqni tarannum etuvchi soʻzlar va birikmalarga quyida bir qancha misollarni keltirib oʻtaman. Masalan, axloqi hamida [ا. حميدة الأخلق] birikmasi "yaxshi xulqatvor", "goʻzal axloq", "yaxshi axloq" degan maʼnolarni anglatadi. Bu ibora koʻpincha insonlarning ijobiy xislatlarini, insoniylik va maʼnaviy yuksakligini ifodalash uchun ishlatiladi. Islomiy axloqshunoslikda bu atama paygʻambarlar, solih

<sup>16</sup> <https://qadriyat.u/Suhbatlar/374> -qazoyi qadarga ishonish va Allohga tavakkal /Toshkent shahridagi "Imom Buxoriy" jome masjidi imom xatibi Zayniddin Eshonqulov bilan suhbat

kishilaryoki axloqiy yetuk insonlar fazilatlarini qo‘lashda qo‘llagan.<sup>17</sup>

Ista ato yo‘lida jon fido qilmoq,

Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq,

Zuhri abad istasang farovon qilmoq,

Bil oni ato-anog‘a ehson qilmoq.

Bu to‘rtlikda ota-onani, ularning izzat-hurmatini baland tutmoq kerakligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Hikmatning o‘zi ham “Ota-onaga mehribonlik – merosdir” deya tarjima qilinadi. Avvalo, ota va onaning hurmatini joyiga qo‘ymoq, ularga sidqidil bilan xizmatda bo‘lmoq eng yuksak, olijanob insoniy burchdir. Har bir yigit va qiz, har bir farzand bu burchni sharaf bilan ijro etmog‘i shart.<sup>18</sup>

Xulosa:

“Nazm ul-javohir” asarida ilgari surilgan axloqiy-falsafiy g‘oyalar insonni komillikka, ezgulik va ma’naviy yetuklikka chorlaydi. Asardagi ruboiylar orqali Navoiy insonni go‘zal axloq egasi bo‘lishiga va solih amallar qilishga undaydi. Tahlil qilingan ruboiylar shuni ko‘rsatadiki, Agar yaxshi amal inson uchun odatga aylansa, u inson hayotini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Demak, “Nazm ul-javohir” asari bugungi kunda ham yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalashda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy " Nazm ul-javohir"

2 “Nazm ul-javohir” ruboiylarining qofiya xususiyatlari Durdona Zohidova Qo‘qon DPI dotsenti va SHoiraxon Xo‘jayeva Qo‘qon PDI o‘qituvchisi maqolasi

3. Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” XV tomlik 15-tom T.G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti

4. Shamsiddinova Hafizabonu FarDu filologiya fakulteti 3-kurs talabasi “Nazm ul-javohir” maqolasi

5. <https://qadriyat.u/> Suhbatlar /374 qazoyi qadarga ishonish va Allohga tavakkal / Toshkent shahridagi “ Imom Buxoriy “masjidi imom xatibi Zayniddin Eshonqulov bilan suhbat.

<sup>17</sup> Alisher Navoiy . Nazm ul-javohir. XV tomlik . 15- tom . T: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti ,1968

<sup>18</sup> SHamsiddinova Hafizabonu FarDu 3- kurs talabasi “Nazm-ul -javohir” nomli maqolasi